



TA'LIMNI BOSHQARUV TIZIMLARI (LMS) YORDAMIDA O'QUV KURSLARI YARATISH.

Ne'matov Oybek Erkin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: oybek.nematov1991@gmail.com


Sattarova Dilafro'z Asqar qizi.

Shahrisabz davlat pedagogi instituti talabasi

Email: sattarovadilafruz03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limdi boshqaruv tizimlari (LMS) yordamida o'quv kurslarini yaratish jarayoni tahlil qilinadi. Ta'limdi boshqaruv tizimlari, ta'lrim jarayonini tashkil etish va boshqarishda samarali vosita bo'lib, o'quvchilarga onlayn platformalarda interaktiv va qulay o'quv tajribasini taqdim etadi. Maqolada LMS tizimlarining xususiyatlari, ularning ta'lrim jarayonidagi ahamiyati va o'quv kurslarini yaratishning asosiy bosqichlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'limdi boshqaruv tizimlari (LMS), o'quv kurslari, onlayn ta'lim, interaktiv o'quv materiallari, ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayonini boshqarish, metodologik yondashuvlar, elektron ta'lim, o'qitish usullari, o'quv platformalari.



COURSE CREATION USING LEARNING MANAGEMENT SYSTEMS (LMS).

Abstract: This article analyzes the process of creating training courses using learning management systems (LMS). Learning management systems are an effective tool for organizing and managing the learning process, providing students with an interactive and convenient learning experience on online platforms. The article talks about the characteristics of LMS systems, their importance in the educational process, and the main stages of creating training courses.

Keywords: Learning management systems (LMS), training courses, online education, interactive educational materials, educational technologies, educational process management, methodological approaches, e-learning, o teaching methods, educational platforms.

Ta'limenti boshqaruv tizimlari (LMS) — elektron ta'lim dasturlarini tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi hamda o'quvchilarning o'zlashtirish natijalari ustidan nazorat olib borish va ularni saqlab qo'yish imkoniyatini beruvchi onlayn platforma. Ta'limenti boshqaruv tizimlari o'quv kursi tarkibini ishlab chiqish va uni nazorat qilish uchun markaziy joyni taqdim etish orqali o'quv jarayonini soddalashtirishga yordam beradi. Shuningdek, LMS o'quvchilarga dars vaqtida olgan bilimlarini boyitish uchun ziarur qo'shimcha manbalarni ham yuborish imkoniyatiga ega qiyosi yo'q platformadir. LMS

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

platformalari uch turga bo‘linadi: bulutli platformalar, serverga asoslangan va CMS bilan integratsiyalangan LMSlar.

O‘quv kurslari — o‘quvchilarga ma’lum bir mavzu yoki sohada bilim va ko‘nikmalarni oshirishga mo‘ljallangan ta’lim materiallari to‘plami. O‘quv kurslari, an'anaviy darslardan farqli o‘laroq, onlayn platformalarda interaktiv usullar, video darslar, testlar, va boshqa o‘quv vositalari yordamida taqdim etilishi mumkin. O‘quv kurslari tashkilotlar yoki ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanadi va ta’limning turli darajalari uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

LMSning bulutli platformalari. O‘quv kursining materiallari LMSning bulutli platformalarida web-xizmatni taklif etuvchining server kompyuteriga joylashtiriladi. LMSning bu turini ta’lim muassasasi yoki tashkilotning server kompyuteriga o‘rnatib bo‘lmaydi. LMSning bulutli platformalari web-xizmat (masalan, pochta xizmati kabi) prinsipi asosida ishlaydi, ya’ni web-xizmat taklif etilgan manzil orqali ro‘yxatdan o‘tgandan keyin o‘quv kurslarini yaratish mumkin. Buning uchun web-xizmat o‘zining serveridan joy ajratadi va barcha ma’lumotlar ushbu serverda saqlanadi. Foydalanuvchi esa bunga o‘ziga kerakli materiallarini yuklashi, ta’lim oluvchilarni qo‘sishi va onlayn ta’lim jarayonini yurgizishi mumkin. LMSning bulutli platformalaridan, asosan, korporativ ta’limda foydalaniladi. LMSning bulutli platformalari: iSpring learn, Google classroom, choology, Loop, Learn Amp va boshqalar. Serverga asoslangan LMSlar tashkilot yoki ta’lim muassasasining serveriga o‘rnatiladi. Bu esa foydalanuvchilarga tizimga korporativ login va parol yordamida kirish imkonini beradi. Barcha ma’lumotlar tashkilot yoki ta’lim muassasasi server kompyuterida saqlanadi. Buning uchun esa LMSni o‘rnatish, sozlash, uning tashkilot yoki ta’lim muassasasi dasturiy ta’mintolari bilan integratsiyasini ta’minlash lozim. Asosan, ta’lim muassasalari va o‘quv markazlarida foydalaniladi. Serverga asoslangan LMSlar: Moodle, BlackBoard, Canvas, Absorb LMS va boshqalar. CMS bilan integratsiyalashgan LMSlarda LMS funksiyalarini bajaruvchi maxsus dasturlar CMSga qo‘shiladi va CMSning imkoniyatlarini kengaytirib beradi. CMSning tarkibida alohida o‘quv kurslar bilan ishlovchi qism xizmat qiladi. Bunday tizimlar onlayn maktab va kurs ochishni xohlovchilar uchun qulay hisoblanadi.

CMS bilan integratsiyalashgan LMSlar: LearnDash (wordpress), joomla, drupal, wix.

LMS platformalari:

Google Classroom (<https://classroom.google.com/>) — ta’lim uchun mo‘ljallangan platforma bo‘lib, kurs/sinfni yaratish va o‘quvchilarni qo‘sish, kerakli o‘quv materiallarini kiritish va o‘quvchilarga taqdim etish, o‘quvchilarga topshiriqlar berish, ularning ishlarini baholash va faoliyatini kuzatib borish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Google Classroomda Googleda akkauntga ega xohlagan foydalanuvchi kurs yaratishi mumkin.

Moodle (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) (<http://moodle.org/>) masofaviy ta’lim olish muhiti hisoblanib, sifatli masofaviy kurslarni yaratish uchun mo‘ljallangan. Bu dasturiy mahsulot dunyoning 100 dan ziyod mamlakatlarida ishlatiladi. Bepul tarqatiladigan bu dasturiy majmua o‘zining funksional

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

imkoniyatlari, o‘rganishdagi soddaligi va ishlatishdagi qulayligi bilan foydalanuvchilarning ko‘plab talablarini qanoatlantira oladi.

Moodle masofaviy ta’limda o‘qitish jarayonini to‘la qo‘llab-quvvatlash uchun keng doiradagi, jumladan, o‘quv materiallarini turli usullarda berish, bilimlarni tekshirish va o‘zlashtirish nazoratini amalga oshirish kabi imkoniyatlarni beradi.

Schoology (<https://www.powerschool.com>) — ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan bulutli LMS. Schoology Google Drive, Microsoft OneDrive, Blackboard Collaborate, Moodle, PowerSchool, Evernote va YouTube bilan birlasha oladi. Shuningdek, u maktab ma’lumotlari tizimi bilan sinxronlashadi. O‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan o‘quv materiallari va topshiriqlar yuzasidan fikr almashish hamda o‘quvchilar va ularning ota- onalari bilan uyushgan holda aloqa o‘rnatish imkoniyatini beradi.

iSpring Learn (<https://www.ispringsolutions.com/ispring-learn>) platformasi ta’lim muassasalari va kompaniyalarda kadrlar tayyorlash uchun ishlab chiqilgan. Biroq ayni paytda amalda asosiy mijozlari sifatida ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Platformaning ma’ruza muharriri bo‘limi yordamida modul va uning materiallari (matnli, audio, video, taqdimot, simulyator, topshiriq, test va b.) kiritiladi. Hisobotlar bo‘limi yordamida foydalanuvchilar faoliyati hamda o‘zlashtirish natijalari tahlili va statistikasini yuritish mumkin.

LearnDash — ommabop kontent boshqaruvi tizimi (CMS)da sinflar yaratish, ularni boshqarish, o‘zgartirish va nashr etish imkonini beruvchi ishonchli plugin. Bu plugin WordPress platformasi tarkibida ishlaydi. Shu sababli, agar ta’lim muassasasi kompyuteriga WordPress o‘rnatilgan bo‘lsa, qo‘srimcha ravishda LearnDash pluginini o‘rnatgan holda o‘quv kurslarini yaratish mumkin. Plugin bir necha kursni yaratish va ularning tarkibini bitta sinfdan boshqa sinfga nusxalash imkonini ham beradi. Shuningdek, kontent tarkibidagi funksiyalar yordamida sertifikat hamda nishonlarni rasmiylashtirish mumkin.

O‘quv platformalari — onlayn ta’lim jarayonlarini boshqarish va amalga oshirish uchun mo‘ljallangan texnologik vositalar va tizimlar. Ushbu platformalar, LMS (Learning Management Systems) tizimlari sifatida tanilgan bo‘lib, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlaydi, darslarni boshqarish, baholarni belgilash, interaktiv materiallar yaratish va o‘quv jarayonini tahlil qilish imkonini beradi. O‘quv platformalari o‘quvchilarga o‘qish, testlar o‘tkazish, video materiallarni tomosha qilish va muhokama guruhlarida qatnashish kabi faoliyatlarni amalga oshirishda yordam beradi. O‘quv platformalarining samarali ishlashi uchun tizimlar intuitiv, foydalanuvchilarga qulay bo‘lishi va turli xil multimedia materiallari bilan ishslash imkoniyatini taqdim etishi kerak.

Xulosa: Ta’limni boshqaruvi tizimlari (LMS) yordamida o‘quv kurslari yaratish bugungi ta’lim jarayonini samarali va qulay qilishda muhim rol o‘ynaydi. LMS platformalari o‘qituvchilar va talabalar uchun interaktiv, moslashuvchan va doimiy ravishda yangilanib turadigan o‘quv resurslarini taqdim etadi. O‘quv kurslari yaratishda, LMS tizimlari orqali kurs materiallarini joylashtirish, talabalar bilan aloqa o‘rnatish, baholash va tahlil qilish

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu ta'lif jarayonini osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Shuningdek, LMS tizimlari o'qituvchilarni o'quv jarayonini monitoring qilish, talabalar rivojini kuzatish va o'quv materiallarini shaxsiylashtirish imkoniyatlari bilan ta'minlaydi. O'quvchilarga esa o'z vaqtida va joydan qat'iy nazar ta'lif olish imkoniyatini beradi, bu esa ta'lifning sifatini oshirishga yordam beradi. LMS yordamida o'quv kurslarini yaratish — ta'lif jarayonining raqamli transformatsiyasi va uning modernizatsiyasi uchun zarur bir qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anderson, T. (2018). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
2. Garrison, D. R., & Anderson, T. (2020). E-Learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice. RoutledgeFalmer.
3. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2016). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
4. Moodle. (2020). Moodle Documentation. Retrieved from <https://moodle.org/>
5. Siemens, G. (2015). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3–10.
6. Sharma, P. (2023). Virtual Learning Environments: A Critical Review of the Literature. *British Journal of Educational Technology*, 34(2), 201–207.
7. Keller, J. M. (2010). Motivational Design for Learning and Performance: The ARCS Model Approach. Springer.
8. Yusuf, M. O. (2021). An Evaluation of the Educational Technology Integration in Developing Countries. *Educational Technology Research and Development*, 59(3), 23–41.
9. Ne'matov, Oybek. "TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYLARI." "Science Shine" International scientific journal 3.3 (2023).